

**“ CHORVACHILIK BILAN BOG’LIQ URF-ODAT, MAROSIMLAR” (OQDARYO
VA PAYARIQ TUMANLARI MISOLIDA)**

Xolmamatov Najmiddin

Toshkent viloyati Zangiota tumani

43 –maktab tarix fani o’qituvchisi

Annotatsiya: *Etnologik tadqiqotlarda aholining xo’jalik faoliyati hamda u bilan bog’liq urf-odat va marosimlar, qadimiy diniy tasavvurlar va e’tiqodiy qarashlarni o’rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Dunyodagi ko’plab xalqlarning turmush tarzi va tirikchilik manbaini belgilovchi xo’jalik mashg’ulotlarining eng qadimiy ko’rinishlaridan biri chorvachilik hisoblanadi. Insoniyat tarixining ilk davrlaridan boshlab hayvonlar bilan bog’liq urf-odat va marosimlar aholi tarmush tarzida muhim ahamiyat kasb etib kelgan.*

Kalit so’zlar: *Chorvachilik, zardo’shtiylik, Chorva hisobi, Qantarovdi, Avesto, cho’pon tayog’i, mo’giz, O’rta Osiyo, Cho’pon ota, Zangiota .*

Chorvachilik bilan bog’liq urf-odatlar va rasm-rusumlar mohiyatiga nazar tashlar ekanmiz, ularning aksariyatida totemizm, fetishizm, shamanizm, sehrgarlik kabi islomga qadar bo’lgan qadimiy diniy e’tiqodlar ustuvor ekanligi va ulardan ko’zlangan asosiy maqsad chorva sonini oshirish, sermahsulligini ta’minlash, uni turli kasalliklar, yirtqich hayvonlar va o’g’rilardan muhofaza qilishga yo’naltirilganligiga ishonch hosil qilamiz. Ularning ayrim ko’rinishlari hozirgacha aholi turmush tarzida saqlanib qolgan.

To’plangan ma’lumotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, chorvachilik bilan bog’liq urf-odat va marosimlarni shartli ravishda quyidagi guruhlariga bo’lib o’rganish mumkin: 1) chorva turining kelib chiqishi haqidagi qarashlar bilan bog’liq; 2) chorvaning o’zi yoki uning ayrim tana a’zosi (shoxi, kalla suyagi) va anjomlari (egar, arqon) bilan bog’liq; 3) chorvachilik tarmoqlaridagi “pir-homiylar” bilan bog’liq; 4) “chorva hisobi” taqvimi bilan bog’liq; 5) chorvachilik mehnat qurollari (cho’pon tayoq, qamchi) bilan bog’liq; 6) chorvachilik mahsulotlari (sut, go’sht) bilan bog’liq; 7) chorvani ko’paytirish va nasl olish bilan bog’liq; 8) chorvani davolash bilan bog’liq urf-odat va marosimlar. Oqdaryo va Payariq tumanlarining chorvachiligining eng muhim tarmog’i bo’lgan qo’ychilik bilan bog’liq xalq an’analari kam o’rganilgan. Ma’lumki, qadimdan turkiy xalqlar orasida qo’y eng muqaddas jonivor hisoblangan. Rus elshunos olimasi YE.M.Pesherevaning yozishicha, O’rta Osiyo xalqlarida qo’ygan qadimdan balo-

qazodan asrovchi ilohiy jonivor safatida munosabatda bo'lishgan¹. Jumladan, "Avesto" matnlarida" mayda mollarga homiylik qiluvchi iloh Frodat-Fshova nomi bilan zikr etilgan² bo'lib, uning birmuncha keyingi qismlari hisoblangan "Xorda Avesto"da "Ayatrima", ya'ni "Chorvani otarlarga qaytarish bayrami" o'tkazilganligi haqida ma'lumotlar bor³. Qadimgi Misrning Fiva shahri aholisi tasavvurida ham qo'y muqaddas hayvon sanalgan. Misrda qo'y-qo'chqor timsolida Amon xudo tasvirlangan.

Etnograf olim G.P.Snesarev qo'chqorning inson vujudi g'oyasi bilan diniy bog'liqligi haqida yozar ekan: "Ushbu hayvonning rivojlangan kultidan ko'p narsa qolmagan va u allaqachon islomga singdirilgan edi.

Qo'chqor musulmon mifologiyasi va an'alariga avvalambor qurbonlik jonivori sifatida kirgan", - deb ta'kidlaydi⁴. Qo'chqor qadimgi zardushtiylik dinida uy egalarini, ularning salomatligini himoya qiluvchi ilohiy ma'bud sifatida talqin etiladi. O'zbek to'ylarida qo'chqor urishtirish udumi uzoq asrlar davomida saqlanib kelgan. Uning kelib chiqishi xususida qadimgi muarrixlarning Sharqiy Buxoro aholisi to'g'risidagi ma'lumotlarida quyidagicha izohlangan: "Yangi yilda yilning qanday kelishini (hosildor yoki hosilsiz) aniqlash maqsadida yetti kun davomida qo'chqor, ot va tuya janglari uyushtirilgan⁵. Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a yonidan ostadondagi tumanidagi Qo'yqirilgan qal'a haykalchasining bo'ynida qo'y shaklidagi taqinchoq bo'lgan. Qabr va ostadonlardagi qo'y suyagi va qo'y shaklidagi taqinchoqlar ham o'z-o'zidan mahalliy xalqlarning qo'y kultiga sig'inganliklarini ko'rsatadi⁶.

Qadimdan turkiy xalqlar qatorida o'zbeklarda ham qo'y eng muqaddas jonivor tarzida qadrlangan va unga totem sifatida e'tiqod qilingan, ya'ni ilmiy adabiyotlarda turkiylar orasida qo'y totemi bilan bog'liq qo'zichi, qo'ziqo'chqor, qo'chqorchi, qo'yin, qo'yinchi kabi urug'lar ham bo'lgan⁷. Xullas, yuqorida nomlari qayd etilgan barcha

¹ Пещерева Е.М. Гончарное производства Средней Азии. – М.: Наука, 1999. – С. 100

* Zardusht Axuramazdadan

"hammadan ko'ra baxtiyorroq bo'lgan dunyodagi to'rtinchi joy qayer?" - deb so'raganida, Axuramazda: "Bunday joy qo'ylar suruvi va mevalar eng ko'p parvarish qilinadigan zamindir", - deb javob bergan. Zardusht Axuramazdadan "hammadan ko'ra baxtiyorroq bo'lgan dunyodagi to'rtinchi joy qayer?" - deb so'raganida, Axuramazda: "Bunday joy qo'ylar suruvi va mevalar eng ko'p parvarish qilinadigan zamindir", - deb javob bergan. Qarang: Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik / Asqar Mahkam tarjimasi. - T., 2001. – B. 113

² Avesto. – B. 343.

³ Ashirov A. "Avesto"dan meros marosimlar. - T., 2001. – B. 10.

⁴ Snesev G.P. Relikti domusulmanskiy verovaniy i obryadov u uzbekov Xorezma. – M.: Nauka, 1969. – S. 316

⁵ Snesev G.P. Ko'rsatilgan asar. – B. 316-317.

⁶ Ashirov A.A. O'zbek xalqining choravachilik xo'jalik bilan bog'liq marosimlarida milliy va diniy e'tiqod uygunlashuvi

// O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy hayot. Respublika ilmiy anjuman materiallari. - Termiz, 2015. – B. 627.

⁷ Qarang: Shaniyazov K. K etnicheskoy istorii uzbekskogo naroda. – T.: Fan, 1974. – S. 123; Jdanko T.A.Ocherki istoricheskoy etnografii karakalpakov. – M.: AN SSSR, 1950. – S. 165;

etnonimlarning qadimiy shakliga qo‘y totemi asos bo‘lgan. Mahalliy aholi qo‘chqorning himoya va turli ofatlarni qaytaruvchi kuchiga ishonishgan.

Oqdaryo tumanida xonadonlarda bolaning tishi chiqishini yengillatish uchun amalga oshirilgan udumlardan biri uni qo‘y yoki qo‘zi ustiga o‘tqazish hisoblangan⁸. Bundan ko‘zlangan maqsad uning tishi qo‘zichoq tishidek bir tekis chiqsin, deb niyat qilingan. Xorazmda bolaning tish chiqishi yomon kechsa, qo‘chqor kalla suyagini olishib, ikki kishi uni bolaning boshi ustida sekin tekizgan holda ushlab turishgan. Shundan so‘ng suyak bo‘laklab tashlangan⁹. Birinchi tushgan tishni qo‘ylar doimiy turadigan joyga tashlashgan Umuman olganda, qadimgi diniy tasavvurlarga ko‘ra, qo‘y himoyalovchi jonivor bo‘lib, bu uning ehtirom ob‘ekti sifatidagi asosiy funksiyasi hisoblangan. Qizig‘i shundaki, qo‘ylarga boshqa jonivorlar kabi hech qachon tumor taqishmagan. Sababi qo‘yning o‘zi ins-jinslar va yomon ko‘zlarga qarshi himoyachi hisoblangan.

Uyning darvoza kesakisiga (tepa kesakisining o‘rtasi yoki ikki yon kesakisiga) qo‘chqor shoxlarini qoqib qo‘yish odati Oqdaryo va Payariq tumanlarining qishloqlarida hozirgacha saqlanib qolgan. Xalq e‘tiqodiga ko‘ra, shoxlar hovlini va uning egalarini yomon ko‘zdan hamda turli ofatlardan saqlar ekan. Quyi Amudaryoda yashovchi qoraqalpoqlar, o‘zbeklar, turkmanlarda vafot etganlarning ruhini yovuz kuchlardan himoyalash maqsadida qarindoshlari qabriga qo‘y shoxlariga o‘xshash tayoklarni yerga tiqib qo‘yish odat bo‘lgan¹⁰. Bu odat Oqdaryo tumanida ham bo‘lgan. Odamlarning tasavvurlarida qo‘y shoxlari tasviri nafaqat vafot etganlar ruhini, balki tiriklarni ham himoyalovchi vosita sanalgan.

O‘rta Osiyo xalqlari uy-ro‘zg‘or buyumlarida qo‘chqor shoxiga o‘xshash naqshlar ko‘plab uchraydi. O.A.Suxareva kashtalardagi qo‘chqor shoxiga o‘xshash naqshlar xususida shunday fikrlarni bildirgan: “Naqshlarda asosan qo‘chqorning bitta belgisi, uning shoxi ifodalangan. Bunday naqshlar O‘rta Osiyoning mahalliy o‘troq va ko‘chmanchi xalqlarida “qo‘chqorak”, Farg‘ona vodiysida yashovchi qirg‘izlarda “qaykalak”, Nurota o‘zbek turkmanlarida “mo‘yiz”, turkmanlarda “choch bo‘yiz” deb atalgan. Bu naqsh ikki spiralning qayrilgan ko‘rinishidan iborat bo‘lib, naqsh

Kuzeyev R.G. Proisxojudeniye bashkirskogo naroda. – M., 1970. — S. 64; Abramzon S.M. Kirgizi i ix etnogeneticheskiye i istoriko- kulturnie svyazi. – L., 1971. - S. 52.

⁸ Dala yozuvlari .Oqdaryo tumani uchtepa qishlog‘i 2021 yil

⁹ Snesarev G.P. Ko‘rsatilgan asar. – B. 316.

*Qolaversa, qo‘y-qo‘zilar turli ins-jinslarni bartaraf etish xususiyatiga ega, deb hisoblagani bois zukko cho‘ponlar kimsasiz yaylovlarda kechalari turli ins-jinslar tahdidan himoyalaniish maqsadida qo‘ylari orasiga kirib tunaganlar. Qarang: Ashirov A. O‘zbek xalqining qadimiy e‘tiqod va marosimlari. –T., 2007. – B. 151.

¹⁰ "Esbergenova S.X. Pochitaniye jivotnix kultovoy praktike karakalpakov (kones XIX - nach. XX ..). Avtoreferat kin. AN RU» Nukus, 2001.-S. 14.

kompozitsiyaning markaziy qismiga tushirilgan. Qo‘y shoxi naqshi ham qo‘y kultidan kelib chiqqan holda ishlatganligiga shak-shubha yo‘qdir¹¹.

Qo‘chqor shoxlari tasviri "yovuz" kuchlardan himoya vazifasini bajargan". Ko‘rinib turibdiki, endilikda jonivorning o‘zi emas, balki uning ma‘lum bir tana qismi himoya vositasiga aylangan¹².

Oqdaryo va Payariq tumanlarining qishloqlarida o‘g‘il bola xatna qalingandan so‘ng unga daxl qilib qolishi mumkin bo‘lgan yovuz kuchlarni haydash uchun balo-qazolar, ziyon-zahmatlar ketsin, degan niyatda bola boshidan xo‘roz yoki to‘y uchun so‘yilgan qo‘yning terisi aylantirilgan¹³ deydi Batrak qishlog‘ilik Abdurazzoq bobo va Uchtepa qishlog‘ilik Oyto‘ti momo teri hovlining xilvatroq joyiga ko‘milgan yoki ustaga berib yuborilgan. Xo‘roz yoki qo‘y terisini aylantirish ibtidoiy diniy e‘tiqod izlari bo‘lib, J.Frezerning fikricha, qadimda odamlar ilohiy kuchlar, xudolarni hayvonlarga nisbatan kult timsolida tasavvur qilganlar¹⁴. Buning ikki xil ma‘nosi bo‘lgan. Birinchisi, uni o‘ldirish, go‘shtini yeyish, kishilar tasavvurida yomonlik keltirgan. Ikkinchisi, u halol, toza, shuning uchun uning go‘shtini iste‘mol qilib, o‘sha hayvon yoki uning a‘zosi ins-jinlarni haydovchi sehrli vosita sanalgan. Qoraqalpoq, qozoq va qirg‘izlarda ham qo‘y terisi tumor vazifasini bajargan¹⁵.

Oqdaryo va Payariq tumanlarida qo‘y suyaklari har joyda tashlanmagan, olovda yoqilmagan. Qozoqlarda esa qo‘y suyaklarining sexriy xususiyati bilan bog‘liq qiziqarli urf-odatlar, rivoyatlar va afsonalar ham mavjud bo‘lgan. Masalan, qishlovlarning tomiga, ba‘zan esa tuyalar bo‘yniga qo‘chqorning tirsak suyagini ilib qo‘yilgan. Qozoq va ko‘plab boshqa Sibir turk-mo‘g‘ul xalqlari rivoyatlarida qo‘yning kurak suyagi alohida sirli xususiyatga ega deb tushunilgan va uni olovda yoqqanda unda paydo bo‘ladigan yoriqlarga qarab fol ochishgan. Bularning barchasi qo‘yning “jannat jonivori” to‘g‘risidagi xalq tasavvurlari bilan bog‘liq bo‘lib, unga muqaddas jonivor sifatida alohida ehtirom ko‘rsatilgan.

S.A.Tokarevning ma‘lumotiga ko‘ra, ayrim urug‘ yoki qabilaning “totemi” bo‘lgan hayvonlar kishilar tasavvurida diniy e‘tiqodning shakllanishiga sabab bo‘lgan. Bu o‘sha hayvon urug‘, qabila ijtimoiy xo‘jalik hayotida muhim rol o‘ynaganligi bilan bog‘lanadi¹⁶. Qo‘y totemini muqaddaslashtirish o‘zbeklarning ba‘zi odatlarida ham

¹¹ " Suxareva O. A Ornament dekorativnix vishivok Samarkana i yego svyaz s narodnimi predstavleniyami i verovaniyami (vtoraya polovina XIX - nachalo XX) Se. -№6, 1983. - S. 78.

¹² Istoriya materialnoy kulturi narodov Uzbekistana. -T., 1961. -S. 87.

¹³ Dala yozuvlari Payariq tumani Batrak qishlog‘i,Oqdaryo tumani uchtepa qishlog‘i 2021 yil.

¹⁴ Frezer Dj. Zolotaya vetov. - S. 173.

¹⁵ Jdanko T.A. Ocherki istoricheskoy etnografii karakalpakov. – M.: AN SSSR, 1950. – S. 168.

¹⁶ Tokarev S.A. Ranniye formi religii. – M., 1990. – S. 65.

namoyon bo'ladi." O'tmishda ayrim jonivorlarga totem, ajdod timsoli sifatida sig'inilishi bilan bir qatorda ularning ba'zilarini ramziy homiy sifatida ham muqaddaslashtirilgan¹⁷.

Chorvachilik xo'jaligidagi ayrim anjomlarga (cho'pon tayog'i, no'xta, tizgin, yugan (jugan), qo'riq (otlarni ilintiruvchi vosita) va boshqalar) muqaddas buyum sifatida qaralgan. Chorvadorlar orasida cho'pon tayog'i muqaddas ashyo hisoblangan. Ushbu tayoq cho'ponning asosiy hamrohi, suyanchig'i va yarog'idir. Cho'ponlarning asosiy ish quroli bo'lgan tayog'i ham o'ziga xos magik xususiyatga ega. deb hisoblangan". Tayoqni sindirish, ustidan sakrash mumkin emas, deydi kekxa cho'pon Anorboy bobo. Cho'pon tayog'i muqaddas hisoblanganligi bois cho'pon bo'luvchi shaxs unga ega bo'lish niyatida qurbonlik qilib, biror-bir hayvonni so'ygan: Shundan keyingina cho'pon tayog'iga ega bo'lgan. Cho'pon o'z tayog'ini eng ishonchli shogirdiga topshirgan. Yosh cho'pon esa ustozini oldida tayoq haqiga qasamyod qilgan¹⁸. Buning uchun Cho'pon tayog'ini yerga qo'yishib, qasamyod qiluvchilar: "Tayoqday quriy"-deyishgan va uch marta uning ustidan sakrashgan".

O'zbek-laqaylari nafaqat cho'pon tayoq bilan, balki yilqiboqarning qamchini bilan ham qasam ichishgan¹⁹. O'z navbatida tayoqdan boshqa narsa bilan hayvonlar urilmagan va tayoqni bosish ham gunoh hisoblangan. Uni nogahon bosib olgan kishi non ushog'i kabi uni yerdan ikki qo'li bilan ko'tarib olishi va uch marotaba o'pishi kerak bo'lgan²⁰.

Agar tayoqni kimdir bilmasdan xatlab o'tsa, ortga hatlab o'tishi lozim bo'lgan. Xalq orasida kimki cho'pon tayog'ini xatlab o'tsa, tayoqqa o'xshab kurishi, homilador ayollar esa muddatidan oldin ko'zi yorishi mumkin, degan tasavvurlar bo'lgan²¹.

* Izoh 115.: Bular mehmon oyogi tagiga qo'y so'yish, imoratlar va polizlarda qo'chqor kallasi va shoxini osib qo'yish, tishi tushgan bola tishini qo'y oyogi ostiga tashlash, kelinni uzatib ketishdan oldin qo'y terisiga yoki teridan tikilgan po'stinga o'tkazish va hokazolar.

¹⁷ Sokolova S.P. Kult jivotnix v religiyax. – M., 1982. – S. 9-43.

"Izoh . Cho'pon tayogi odatda qalin (taxminan 3-5 sm) va uzunligi qariyb 1,5 m bo'lib, pishiq bo'lgan "chetan", "qirgay" yoki "qizil tut" daraxtidan qilinadi. Tayoqni tekis bo'lishi uchun olovda to'g'rilab chiqishgan va yoglashgan. Tayoq cho'ponga tog'larda yurishda, daralardan sakrab o'tishda, qo'ylarni haydash va yigishda yordam beradi. Cho'pon tayoq yordamida hayqiriqqa quloq solmagan qo'ylarni bo'ysundirgan, otarga hujum qilgan bo'rilarni haydagan.

¹⁸ Muqaddas hisoblangan anjomlarni egasi har qanday holda ham birovga bermagan. Xalq qarashlarida ushbu qoidani buzish baxtsizlik keltiradi, deb o'ylashgan. Dala yozuvlari. Payariq tumani Mirzaovul qishlog'i. 2021yil.

¹⁹ Agar biron yilqiboqar boshqasini ot o'g'irligida ayblasa, o'zining qamchisini yerga tashlab ayblanuvchiga qarab "irgib o't" degan. Agarda ayblanuvchi xaqiqatdan ham o'g'rilik qilgan bo'lsa, undan irgib o'tmagan. Chunki yolg'on kasam ichib, tayoqdan sakrab o'tgan kishini, albatta, o'limga olib keladi, deb tasavvur qilingan.

²⁰ Ashirov A. O'zbek xalqi qadimiy e'tiqod marosimlari. – B. 158.

²¹ " Shaniyazov K. Uzbeki-karluki. - S. 76–77.

Umuman olganda, cho‘pon tayoki chorvadorlar orasida o‘ziga xos xususiyatga ega ashyo sifatida qadrlangan.

Farg‘ona vodiysida agar tayoq ustidan mollar o‘tib, biror dardga chalinsa, aynan o‘sha tayoq bilan kasal hayvonni silab davolash tavsiya qilingan. Shu sabab cho‘ponlar tayoqlarini doimo o‘zlari bilan olib yurganlar va uni oyoq ostiga emas, chetroqqa qo‘yishga harakat qilganlar²². Chorvadorlar mol sonining ko‘payishi yoki kamayishini cho‘pon tayog‘ining hosiyatli yoki hosiyatsizligi bilan ham bog‘lashgan". Aholi orasida "cho‘pon tayog‘i tegmagan yer yo‘q" degan iboralar bo‘lib, cho‘pon tayog‘iga nisbatan davolovchi vosita sifatida tasavvurlar paydo bo‘lgan²³.

Omadli tanlangan cho‘pon tayog‘ini o‘zbek-qipchoqlari ko‘p xosiyatlarga ega deb bilishgan. "Qo‘ychining tayog‘idan, kelinning oyog‘idan" degan maqol xalq og‘zaki ijodida bejizdan kelib chiqmagan.

Shuning uchun cho‘pon tayoqni tanlash, olib yurish, saqlash jiddiy ish, deb hisoblangan. Otarni yozgi yaylovlarga haydashdan oldin tayoqqa yog‘ surkashgan. Agar cho‘pon o‘z xo‘jayinidan hisob-kitobni to‘g‘ri qilmayotgan uchun norozi bo‘lib ketmoqchi bo‘lsa, cho‘pon o‘z tayog‘ini tashlab, bundan keyin uning qo‘ylarini boqmasligini aytgan. Shundan so‘ng cho‘ponning ushbu otarga qaytishi mumkin bo‘lmagan.

Ma‘lumki, qadimda fenologik bilimlar dehqonlar kabi chorvadorlar hayotida ham muhim ahamiyat kasb ketgan. Qadimgi davrlarda jonivorlarni qo‘lga o‘rgatish va xonakilashtirish jarayoni boshlangandan e‘tiboran odamlar chorva mollarini boqish, ko‘paytirish, yaylovlarni almashtirish muddatlarini belgilash asnosida asta-sekinlik bilan chorva taqvimini yaratganlar. Shuning uchun ham barcha turkiy tilli xalklar ma‘naviy madaniyatida "chorva hisobi" taqvimi juda muhim o‘rin tutgan. Bu hisobning yuzaga kelishida chorvachilik bilan bog‘liq urf-odatlar va marosimlar ham muhim rol o‘ynagan²⁴. "Chorva hisobi" o‘zbek xalq taqvimining qadimiy turlaridan biri bo‘lib, cho‘ponlar orasida keng qo‘llanilgan²⁵. "Chorva hisobi"ni bilish cho‘ponlar uchun ham juda katta amaliy ahamiyat kasb etgan. Chunki "chorva hisobi"ni yaxshi bilgan va unga to‘la amal qilgan cho‘pon otarni xatardan to‘la saqlay olgan. Bu hisobni bilmaydigan tajribasiz cho‘ponlar esa bahorga betalofat chiqa olmaganlar. Ular erta bahorda ozgina kun isib ketsa, buni ko‘klam kelganining alomati deb o‘ylab, suruvni yaylovga chiqarishgan va keyin havo buzilgach, katta talofat ko‘rishgan. Shuning

²² "Sarimsoqov A.A. Shimoliy Fargona qipchoqlarining chorvachilik bilan bog‘liq marosim va urf-odatlar. Markaziy Osiyoda an‘anaviy va zamonaviy etnik jarayonlar. 2-kitob. – T., 2005. – B. 140.

²³ Dala yozuvlari. Oqdaryo tumani Uchtepa qishlogi, 2021 yil.

²⁴ Jo‘rayev M., Pirmatova M. O‘zbeklarning chorva bilan bog‘liq marosimlari va "chorva hisobi" taqvimi // O‘zbekiston tarixi. - 4, 2005. – B.35.

²⁵ Folklorshunos olim B. Sarimsoqovning yozishicha, cho‘pon yili 16 martdan boshlangan. Bu yerga amal kirishi va o‘t-o‘lanlarning o‘sib chiqish boshlashi bilan bog‘liq. Ana shu kundan boshlab chorvadorlar yozgi yaylovga ko‘chish tadbirini boshlab yuborganlar. Qarang: Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. –T.: Fan, 1986. -6.40-41,

uchun ham tajribali cho‘ponlar bu kunlarni o‘tkazib chorvani yaylovga olib chiqish kerak, deyishadi ²⁶.

Tumanlarning chorvadorlarning taqvimida qishning oxiri erta bahor mavsumi “Qantarovdi” deb atalgan. “Qantarovdi” boshlanishi bilan chorvadorlar chorvani qishki qo‘tondan chiqarib, yaylovda boqa boshlagan²⁷.

“Chorva hisobi”ning boshi “qo‘ton buzish” deb ataladi²⁸. Bu bahorda toqqa, yaylovga ko‘chish degan ma‘noni anglatgan. Cho‘ponlar vaqtda yoqqan qor yerda ko‘p turmaydi, tez erib ketadi. Bu davrni cho‘ponlar “qantar og‘di” deb ataydilar²⁹. Ko‘plab Yevropa mamlakatlarida chorvani yozgi yaylovga ko‘chirish avliyo Georg kuniga, ya‘ni 23 aprelga to‘g‘ri kelgan. Yaylovga oldin qo‘ylar, keyin yirik shoxli qoramol, echki va ot haydalgan³⁰.

Erta bahorda “ko‘ton buzish” marosimida yaylovga chiqarilayotgan qo‘ylar otarining orasidan yoki yaylovda o‘tlayotgan suruvning o‘rtasidan o‘tish gunoh hisoblangan³¹. Mabodo kimdir tasodifan suruv orasidan o‘tib qolsa, u uch marta birdan yettigacha bo‘lgan sonlarni sanashi kerak, deyishgan. Shunday qilinsa, suruvdagi qo‘ylar bo‘linib ketmas ekan.

Ilgari o‘zbeklarda qo‘ylarni bahorgi va yozgi yaylovlarga chiqarishdan oldin qo‘yni yovuz kuchlardan tozalash udumi o‘tkazilib, bu olov yordamida amalga oshirilgan³². Cho‘ponlardan biri qo‘lida yondirilgan mash‘ala bilan qo‘tondagi otarni aylanib chiqqan hamda qo‘tondan chiqish oldidan qo‘ylarga isiriq (paganum harmala-

²⁶ Dala yozuvlari. Payariq tumani ko‘l qishlog‘i, 2021 yil.

²⁷ Dala yozuvlari Oqdaryo tumani. yalang‘och qishlog‘i 2021 yil

²⁸ Toshkent viloyatidagi keksa cho‘ponlarning aytishicha, “chorva hisobi” 10 martdan, ya‘ni ayamajuz, ahman- dahman, xezim-xirmon kunlari o‘tgandan keyin boshlanadi. Qarang: Jo‘rayev M., Pirmatova S. O‘zbeklarning chorvachilik bilan bog‘liq marosimlari... – B. 60–61.

²⁹ Qozoq etnografi X.Abishevning fikricha, "qantar" atamasi kunning qantarilishini", ya‘ni “kun qisqarishining to‘xtashi” ma‘nosini bildiradi. Chuvash tilida esa tush vaqti “qangtar” deyiladi. Demak, "kantar" (qanttar) atamasi quyoshning osmon gumbazidagi harakatini muttasil kuzatish asosida kelib chiqqan taqvimiy tushunchadir. Qarang: Abishev X. Aspan siri. Almata, 1960. – B. 251-252. Jo‘rayev M., Pirmatova S. O‘zbeklarning chorvachilik bilan bog‘liq marosimlari... – B. 60–61.

³⁰ Kalendarnie obichai i obryadi v stranax zarubejnoj Yevropi. – M.: Nauka, 1977. - S. 101.

³¹ Dala yozuvlari. Oqdaryo tumani Ko‘ksaqol qishlog‘i qishlog‘i, 2021 yil.

³² Otar qishlovga qaytganda qo‘tonga kirish oldidan cho‘ponlar yovuz kuchlarni haydash uchun qo‘ton eshigi oldida ikki tomonga (bir-biridan 6-7 qadam oraliqda) gulxan yoqishib, qo‘ylarni olov oraligidan haydab (“tozalab”) ko‘raga kirgizishgan. Keyin qo‘ylarga isiriq tutatilgan. Otar egasi yana qo‘y so‘yib, ziyofat uyushtirgan, mulla risola (kasb, mashgulot tarixi bilan bog‘liq Nizom) o‘qib, Yaratganga shukronalar qilishgan. Qarang: Shaniyazov K. Otgonnoye jivotnovodstva u uzbekov. -S. 93.

* Izoh . Samarqandda uni isiriqni hazarispanand deyishadi. Olimlarning aniqlashicha, isiriqning shifobaxshligi zardushtiylik davridan buyon ma‘lum. Bobolarimiz bu o‘simlikni "muqaddas" deb bilishgan.

isiriq, isvon) tutatishgan”. Olov yordamida poklash haqidagi tasavvurlardan qo‘ylarni uning orasidan o‘tqazish udumi kelib chiqqan³³. Isiriq xalq tabobatida hozirgacha qo‘llaniladigan giyohlardan biri bo‘lib, undan turli kasallikning oldini olish va davolash maqsadida foydalaniladi³⁴. Oqdaryo va Payariq tumanlarida umuman O‘zbekistonning boshqa xududlarida olovning tozalovchi kuchiga ishonish odati saqlangan³⁵. Qozoq, turkman va qirg‘izlarda ham olovning tozalovchi kuchiga ishonishgan va ikki tomonda yoqilgan olov o‘rtasidan butun chorvani o‘tkazishgan. Yevropa mamlakatlarida, jumladan, Sardiniya orolida kasallik yuqmasin, deb uy hayvonlarini olov atrofida aylantirish udumi mavjud bo‘lgan³⁶.

Buxoroda erta tongda qo‘ylarni qo‘tondan olib chiqib, yoqilgan katta olov atrofida aylantirib, cho‘pon tayog‘ini ham ana shu lovillab yonayotgan olov tiliga tegizib, uch marta “yalatib” olganlar. Bu udum "tayoq qizartirar" deyilgan³⁷. Shunday qilinsa, yil bo‘yi suruvga hech qanday ziyon-zahmat yetmaydi, deb hisoblashgan. Payariq tumanida suruvni bahorda birinchi marta yaylovga chiqarganda qo‘ylarning qiy-qumalog‘ini olib yaylovga sepishgan va “Quy-qo‘zilar, echki-uloqlar ana shu qumaloqday ko‘payib ketsin”, deb niyat qilishgan³⁸.

Agar yuqorida yuqumli chorva kasalliklariga qarshi ko‘rilgan choralar hech qanday samara bermasa, xalq qarashlari bo‘yicha so‘nggi usul qo‘llanilgan, ya‘ni yaylovni almashtirishgan. Bu eski joyda avjiga chiqqan sirli yovuz kuchni chalg‘itish yo‘li bo‘lib, ba‘zan yangi joylarga ko‘chib o‘tish ijobiy natija bergan. Har yili voaha chorvadorlari yaylovga chiqish va undan qaytishdan oldin chorva homiylari — Cho‘pon ota (qo‘ychilik homiysi), Chechan ota (echkichilik homiysi) va Zangi otaga (qoramolchilik homiysi bag‘ishlab qurbonlik qilishgan³⁹. Qo‘y egalari har yili ikki marotaba (erta bahorda qo‘yni qishki qo‘tondan yaylovga haydash paytida) va kech kuzda (qo‘y suruvini qishlov yeriga olib kirish paytida) qo‘y so‘yib, Cho‘pon otaga atab xudoyi qilishgan. Ziyofatdan so‘ng Cho‘pon otaga atab Qur‘ondan uzundan uzun sura

³³ Zardushtiylik diniy qoldiqlarining ba‘zi bir ko‘rinishlari islom dini kirib kelgandan so‘ng ham yo‘qolib ketmasdan, islom bilan aralashib, qorishib ketgan. Shunday qilib, islom dini O‘rta Osiyo xalqlarining, jumladan, o‘zbek xalqining qadimgi diniy tasavvurlaridan juda ko‘p udumlarini o‘zlashtirgan va uni islom aqidalariga moslashtirgan.

³⁴ Javliyev T. An’analar — hayot sabogi. –T.: O‘zbekiston, 1992. – B. 28.

³⁵ Bo‘riyev O., Xolov R. O‘zbeklarda olov bilan bog‘liq qadimgi e‘tiqod izlari // O‘zbekistonda ijtimoiy- iqtisodiy va etnomadaniy hayot. Respublika ilmiy anjuman materiallari. – Termiz, 2015. – B. 636—640.

³⁶ Tokarev S.A. Kalendarnie obichai i obryadi v stranax zarubejnoy Yevropi. – M.: Nauka, 1977. - S. 81.

³⁷ O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til, adabiyot va folklor instituti folklor arxivi. Inv. №182724, 2005 yil 13 avgustda M. Pirmatova yozib olgan.

³⁸ Jo‘rayev M., Pirmatova S O‘zbeklarning chorvachilik bilan bog‘liq marosimlari. – B. 39

³⁹ Sarimsoqov A.A. Shimoliy Farg‘ona qipchoqlarining chorvachilik bilan bog‘liq marosim. - B.138.

o‘qishib, undan chorva egasining haqqiga duo qilishgan, molining tuyog‘i ko‘payishini, ularni turli balo-qazolardan, ofatlardan saqlashni so‘rashgan⁴⁰.

Mahalliy cho‘ponlar yozgi yaylovga ko‘chishda hafta kunlariga ham alohida e‘tibor berganlar⁴¹. Chunonchi, ular chorvani yaylovga olib chiqishda haftaning xosiyatli kunlari deb e‘tirof etilgan kunlarni tanlashgan". Payariq tumanidan keksa cho‘pon Anorboy boboning aytishicha, cho‘ponlar chorshanba" va payshanbani irim ko‘rmaydilar, jumani ulug‘ kun deb biladilar⁴². Farg‘ona vodiysida chorvadorlar chorvani yaylovga olib chiqishda haftaning xosiyatli kunlari deb chorshanba va shanba kunlari tanlangan. Chorvadorlar nazdida haftaning boshqa kunlari, ayniqsa, jumadan ko‘chish xosiyatsiz hisoblangan. Chunki xalqona qarashga ko‘ra, ushbu kun barcha musulmonlar kabi hamma jonivorlar uchun ham dam olish kuni sifatida belgilab qo‘yilgan".

Chorvaning ko‘payishi, uning turli yaylovlarda unumli boqilishi cho‘pondan katta tajriba va mahorat talab qilgan. Cho‘ponga izzat va hurmat bilan qaralgan tayog‘ini o‘sha joyga qadab ketishgan (kasallikni olib qolsin deb)⁴³. Samarqand viloyati Payariq tumanidagi Mirzaovul qishlog‘ida "Shayit amma" degan muqaddas mozar bo‘lib, agar odamlarning qo‘ylari yoki mollari kasalga chalinsa, moliga birov qasd qilgan bo‘lsa, ana shu mozorni aylantirib, jonliq so‘yib xudoyi qilishgan⁴⁴.

Ilgari chorva mollarida o‘lat kasalligi tarqalganda, eshonlarga nazr berish, yomon ko‘zlardan asrash uchun mollarning bo‘yniga, shoxiga tumor taqish, taloq kasaliga chalingan mollardan birining to‘rt oyog‘ini yuqori qilib, yo‘l yoqasiga tiriklayin ko‘mish kabi magik xarakterdagi rituallarni bajarish odat tusiga kirib qolgan⁴⁵. Bundan tashqari "Qo‘turbuloq" ziyoratgohi⁴⁶suvidan (qora rangdagi) olib kelishib, kasal molning butun badaniga surkab chiqishgan⁴⁷. Bundan tashqari, chorvani kasalliklardan davolash va ziyon-zahmatdan asrash uchun chorraha yo‘liga chiqib, to‘rt tomondan cho‘pchak terib, isiriq tutatish odati bo‘lgan. Bu "cho‘pchak chorraha" deb atalgan⁴⁸.

⁴⁰ Dala yozuvlari. Payariq tumani Nakurt qishlog‘i. 2021 yil.

⁴¹ Ustayev SH. Dni nedeli v poveryax narodov Yujnogo Uzbekistana // Krayevedeniye Surxandari. - T.: O‘zbekiston, 1989. – S. 150, 151, 153.

* Izoh . Shuning uchun ham "chorva hisobi"ni biladigan kishilar qo‘ton buzish muddatini ko‘pincha chorshanba kuniga belgilaganlar. Chunki shanbani barakali kun deb bilishgan.

⁴² Dala yozuvlari. Payariq tumani Mirzaovul qishlog‘i 2021 yil

*Izoh . Shu bois agar shu kun yo‘lga chiqadigan bo‘linsa Ollohning irodasiga qarshi boriladi va biror bir falokatga yo‘liqish mumkin, deb hisoblangan. Qarang: Ashirov A. O‘zbek xalqi qadimiy e‘tiqod va marosimlari. – B. 148.

⁴³ Dala yozuvlari .Payariq tumani Markaz qishlog‘i 2021 yil.

⁴⁴ Dala yozuvlari. Payariq tumani Mirzaovul qishlog‘i 2021 yil

⁴⁵ Kamol Ochil, Qaldirg‘ochni ko‘ndirgan qo‘shiq. -Samarqand: Zarafshon, 1992. – B. 22.

⁴⁶ "Qo‘turbuloq" ziyoratgohi Samarqand viloyati Oqdaryo tumani joylashgan.

⁴⁷ Dala yozuvlari. Oqdaryo tumani Uchtepa qishlog‘i 2021 yil.

⁴⁸ Dala yozuvlari. Oqdaryo tumani Chorshanba qishlog‘i. 2021 yil.

Ilgari chorva kasalliklarini davolaydigan bilimli kishilar kamdan kam uchragan. Shuning uchun cho‘ponlar uzoq yillar davomida saqlanib kelayotgan odatlarni qo‘llab, veterinariya yordamini ham o‘z zimmalariga olishgan. Cho‘ponlar qo‘ylardagi kasalliklarni turli yemish va dori giyohlar berish, yaralarni qurtlardan tozalash, so‘ngra yuvib, ustidan dorivor o‘tlarni qo‘yish yoki yog‘ surkash orqali davolashgan. Oshqozon-ichak va boshqa ichki kasalliklarni turli giyohlar va ularning damlamalari bilan davolashga harakat qilishgan. Otarda yuqumli kasallik (chechak) tarqalganda, qo‘ychivonlar kasallikning yoyilib ketmasligi uchun kasal qo‘ylarni so‘yib, terisini yoqib yuborishgan.

Keksa cho‘ponlarning so‘zlariga qaraganda, agar yoz bo‘yi o‘rtacha 1000-1200 bosh qo‘ydan 100-150 boshi nobud bo‘lsa, sog‘lari yozgi yaylovlarga yaxshi to‘ydirilgan holda qaytishi mumkin bo‘lgan. Demak, 10 % gacha yo‘qotish unchalik jiddiy xavf hisoblanmagan. Xalq orasida “chorva chorvaga qirq yilda yetadi” degan naql ham mavjud⁴⁹.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, xo‘jalik yuritish – bu albatta, oson kechadigan jarayon emas, ya’ni bunda kishilardan katta hayotiy tajriba, sabr-toqat, o‘ziga xos bilim talab qilinadi. Har bir etnosning, har bir soha egalarining xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq o‘ziga xos urf-odat va marosimlari bo‘lib, ular juda qadim davrlardan beri o‘tkazib kelinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

- 1.Пещерева Е.М. Гончарное производства Средней Азии. – М.: Наука, 1999. - С. 100
2. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik / Asqar Mahkam tarjimasini. - T., 2001. – B. 113
- 3.Ashirov A. A. "Avesto"dan meros marosimlar. - T., 2001. – B. 10.
- 4.Snesarev G.P. Relikti domusulmanskix verovaniy i obryadov u uzbekov Xorezma. – M.: Nauka, 1969. – S. 316
- 5.Ashirov A.A. O‘zbek xalqining choravachilik xo‘jalik bilan bog‘liq marosimlarida milliy va diniy e‘tiqod uygunlashuvi // O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy hayot. Respublika ilmiy anjuman materiallari. - Termiz, 2015. – B. 627.
- 6.Ashurov A.A.O‘zbek xalqining qadimiy e‘tiqod va marosimlari . T., 2007 .
- 7.Javliyev T. An’analar — hayot sabog‘i. –T.: O‘zbekiston, 1992. – B. 28

⁴⁹ Bunga ko‘ra chorva mollari turli tabiiy ofatdan yoki kasallikdan qirilib ketsa, uni tiklash uchun ko‘p vaqt talab qilingan. Samarqand viloyati Payariq tumani Mirzaovul qishlog‘i 2021 yil

8. Bo‘riyev O., Xolov R. O‘zbeklarda olov bilan bog‘liq qadimgi e‘tiqod izlari // O‘zbekistonda ijtimoiy- iqtisodiy va etnomadaniy hayot. Respublika ilmiy anjuman materiallari. – Termiz, 2015. – B. 636—6: 40

9.Sarimsoqov B. O‘zbek marosim folklori. –T.: Fan, 1986. -6.40-41,

10.Tokarev S.A. Kalendarnie obichai i obryadi v stranax zarubejnoj Yevropi. – M.: Nauka, 1977. - S. 81.

11.Jo‘rayev M., Pirmatova S O‘zbeklarning chorvachilik bilan bog‘liq marosimlari. – B. 39

12.Sarimsoqov A.A. Shimoliy Farg‘ona qipchoqlarining chorvachilik bilan bog‘liq marosim va urf –odatları.Markaziy Osiyoda an‘anaviy va zamonaviy etnik jarayonlar.2-kitob.-T...,2005. - B.140